



“BERDAQ IJODIY MEROSSI:ADABIYOT VA MA’NAVIYAT MANBAI”.

*Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti.
2-pediatriya va Fundamental Tibbiyot Fakulteti talabasi
Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Berdaqning adabiyot va ma’naviyat rivojidagi o’rni hamda uning ijodiy merosining falsafiy, axloqiy va madaniy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Berdaqning asarlari milliy ongni shakllantirish, ijtimoiy haqiqatni yoritish va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim omil bo’lganligi yoritiladi. Shuningdek, uning she’riyati xalq hayoti, dardlari va orzu – umidlarini ifodalashdagi o’ziga xosligi va zamonaviy yoshlar uchun ibrat bo’lish imkoniyatlari keng ko’rib chiqiladi. Uning ijodi o’z davri va hozirgi zamon uchun ma’naviy – axloqiy boylik manbai bo’lib xizmat qilayotgani tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi va ushbu maqolada Berdaqning ijodiy faoliyati, uning asarlarining badiiy va falsafiy ahamiyati keng yoritiladi.

Kalit so’zlar: milliy ong, falsafa, ijtimoiy haqiqat, madaniy qadriyatlar, ma’naviyat,

Berdaq – qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri, ma’rifatparvar va xalqparvar mutafakkiri. Uning ijodi qoraqalpoq adabiyotining oltin fondiga kirib, o’zbek va boshqa turkiy xalqlar uchun ham ma’naviy boylik manbai hisoblanadi. Shoirning she’rlari milliy o’zlikni anglash, xalq hayotining turli jihatlarini yoritish va axloqiy qadriyatlarni targ’ib qilish borasida muhim ahamiyatga ega.



Berdaqning hayoti va ijodiy faoliyati XIX – asrda shakillangan bo’lib, uning asl ismi Berdimurod Qarg’aboy o’g’li bo’lib 1827 – yilda Qoraqalpoq Respublikasining Mo’ynoq tumanida dunyoga kelgan. U o’z davrining ijtimoiy – siyosiy va madaniy muammolarini o’z asarlarida aks ettirgan. Shoирning ijodi qoraqalpoq xalqining og’ir hayoti, ular boshidan kechirgan ijtimoiy muammolarni yoritishga bag’ishlangan. U o’z asarlari orqali xalqni ma’rifatga chaqirgan, adolat va axloqiy poklikka undagan. Berdaqning she’rlarida tarixiy voqealar, xalqning og’riqlari va umidlari badiiy ifoda topgan. Misol uchun “Xalq uchun” she’ridagi quyidagi misralarga to’xtalib o’tsak.

Berdimurod o’ylab aytgil so’zingni,
Ko’tarma lof urib faqat o’zingni
Qizartmagay birov sening yuzingni,
Qo’ldan kelsa xizmat ayla xalq uchun.

Zolimlar tinglamas mo’minning zorin,
Ular o’ylar o’z ishining barorin.
Zolimlar hech qachon qo’lida borin,
Sarflamaslar bor bo’lsa – da xalq uchun.

Tug’ulibmanki yo’q manzil – makonim,
Zahar – zaqqum bo’ldi ichgan – yeganim.
Agar bo’lmasa – da mening deganim,
Tasalli topaman ulug’ xalq uchun.



Berdaq o'z ijodida xalq og'zaki ijodiga katta e'tibor qaratgan. Uning she'rlarida xalq qo'shiqlari, doston va afsonalarining ruhiyati sezilib turdi. Shoirning badiiy uslubi soda va ta'sirchan bo'lib, unda xalqona ruh va zamonaviylik uyg'unlashgan. U har bir asarida insoniylik va adolat kabi muhim qadriyatlarni ilgari suradi. Ayniqsa, uning falsafiy lirikasi inson tabiatini, hayotning mazmun – mohiyatini chuqur anglashga undaydi. Berdaq ijodining falsafiy jihatlari uning asarlaridagi hayot va inson mohiyatini chuqur mushohada qilganida namoyon bo'ladi. Shoirning ko'plab she'rlari hayotning o'tkinchiligi, dunyo go'zalligini qadirlash va insonning o'zligini anglash mavzusiga bag'ishlangan. U milliy ongnishakillantirishda katta ro'l o'ynab, o'z asarlarida xalqning milliy o'zligini himoya qilish va saqlashni targ'ib qilgan. Bugungi kunda Berdaq ijodi nafaqat qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlar uchun ma'naviy boylik manbai hisoblanadi. Uning asarlari yoshlarni tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatishga katta e'tibor qaratadi. Ayniqsa, sho'ro davrida unutilgan qadriyatlar va tarixiy haqiqatni qayta tiklashda Berdaq ijodi katta yordam beradi. Zamonaviy yoshlari uning ijodidan hayotiy saboqlar olishlari mumkin.

Berdaq ijodiy merosi qoraqalpoq va o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rinn tutadi. Uning asarlari milliy va ma'naviy qadriyatlarni shakillantirish, axloqiy poklikni targ'ib qilish va adabiy merosni boyitishda bebaho ahamiyat kasb etadi. Shoirning ijodini o'rganish nafaqat ilmiy, balki ma'naviy jihatdan ham muhimdir. Inson va uning hayotidagi muammolar haqida Berdaqning asarlaridagi qahramonlarida ko'rishimiz mumkin. Chunki uning asaridagi qahramonlarni hayotlarini, har kungi bo'ladigan muammolari hal qilish bilan yashaganliklarini ifoda etgan. Ular o'z dushmanlari bilan har kuni, har daqiqa, har soniya kurashdilar. Chunki ilarning baxtlari ular tomonidan qisib qo'yilgan edi. Ular mehnatkashlarni har yili qiynalib, ter to'kib qilgan mehnatlarini qadriga yetmasdilar balki, ularni hosillarini tortib olib boshlariga og'ir kunlarni solardilar. Ular bu hosisiga erishish uchun inson qo'lidan kelmaydigan, inson zoti hayoliga



sig'dirmaydigan tubanliklarni, razilliklarni qildilar. Ular xudoga yaqin bo'lish uchun, balki baxt – saodatga erishish uchun, adolatga erishish uchun bu zolimlarga qarshi kurashadilar. Shoirning asarlaridagi qahramonlarni xalq judaa sevardi. Lekin shoir boshqa muhabbatni nazarda tutgan ya'ni, so'fiy muhabbatini emas, oddiy xalq muhabbatini edi. Shoir ham oddiy xalq orasidan chiqqanligi va bu toifa insonlarni orasida yashagani, ular ichki kechinmalarini his eta olgani bunga sabab bo'lgan. Shoir o'zining "Ber endi" degan she'rlarida esa oddiy xalqni o'z timsolida yoritib bergen.

Chiqar bo'ldi jonim tanadan,
So'rasangiz xalqim Mandan.
Yaratgan tilagim sandan,
Rahim qilgil zinhor endi.

Bunda shoirni tanidan joni chiqayotgani, umrini oxiriga qadar ham xalqni dardi bilan yashayotgani haqida ko'rishimiz mumkin. Shunda ham oddiy xalqni yodga olib ollohdan ularga baxt – saodat tilayotganini bildiradi. Shu davrdagi qiyinchiliklarni ollohga murojat qilib o'tmoqda.

Cho'ntagimda yo'q qora pul,
Qavmu qarindoshim bo'ldi qul.
Ular hali azob nuqul,
Yordam ber endi, ber endi.



Bu yerda esa Berdaq uning puli yo'qligidan, shu sababli uning qavm – u qarindoshi zolimlar qo'lida qul bo'lganidan azoblanganligini aytib o'tmoqda. Bu holat shu davrda nafaqat Berdaqning oilasida, balki butun xalqni boshida shu kabi muammolar borligini, oddiy xalq naqadar azobdaligini aytib o'tmoqda. Endi bularni holi, butun umri azobda qolishini, ularga ollohdan yordam so'rab murojaat qilgan ya'ni, ularga o'zining yordam ber bo'lmasa bu zolimlarni rahmi kelmaydi demoqda.

Berdaq xalqni boylarning yomon munosabatlaridan qutqarish haqida chuqur o'ylagan, uning hohish – istagi, boylarni mehnatkash xalqqa ya'ni, oddiy xalqqa bir xil munosabatda bo'lishlarini istagan. Ularga haqiqiy inson baxtini, adolatli munosabatda bo'lishlarini va ular muhtoj bo'lgan narsalarga erishishlarini hohlagan. Xalqning obyektiv va subyektiv muammolari ya'ni, bu zamoning muammolari shoir uchun ko'pgina qiyinchiliklar yaratgan. Shu sababli shoir uzoq vaqt davomida mehnatkash xalqning mustaqilligi haqida fikrlagan. Obyektiv qonunlar, qiyinchilik bilan bog'langan munosabatlar, avlodlarning aloqalari, diniy ishontirishlar, bular hammasi boylarning ustidagi bir niqob bo'lgan. U niqob ostida hamma haqiqatlar yashiringan edi. Shuning uchun o'zining ko'p asarlarida masalan: "Bo'lgan emas", "Yoz kelurmi" va boshqalarida shoir xalqni hohishi hech qachon amalga oshirilmaganini, kambag'allar uchun hech qachon yoz kelgaganligi haqida yozgan. Boylar, feodallar kambag'al xalqqa hech qachon tinch yashashga imkoniyat bermaganlar. Bu zamonda osmon qora bulutlar bilan qoplangan edi. Oddiy mehnatkash xalq har doim hayotiy muammolarga duchor bo'lardi va bu qorong'u dunyodan chiqishga eshik topolmasdilar deydi shoir.

O'z xalqining sodiq farzandi Berdaq, podshohni, xonlarni, umuman barcha oddiy xalqni ezuvchilarni yomon ko'radi, ularga la'nat o'qiydi, ularni xalqning ashaddiy yovlari, xalqni chaqadigan zaharli ilon – chayonlar deb



biladi. U “Ko’rindi” degan she’rida shoir, xonlar va otaliqlardan qattiq nafratlanish bilan bunday deydi:

Odamga shafqatsiz jallod – beomon,
Elni ko’p yig’latgan otaliq va xon.
Boshlariga ko’p qayg’u soldi bu zamon,
Menga bari ilon, chayon ko’rindi.

Beklar Berdimurodni qancha quvg’inga olsalar ham, uni to’g’ri yo’ldan, mehnatkash xalqning og’ir turmushini kuylashdan, ko’pchilikni ozodlik uchun kurashga chaqiruvdan to’xtatolmadi va yo’qotib yuborolmadi. Berdaq bundaylarga javoban:

Men o’ylayman so’zim yurar doimo.
Urug’I ko’p odam yovdan qo’rqarmi?

deb, o’zining va o’z asarlarining o’lmasligini aytadi.

Berdaq asarlarining yana bir xarakterli tomoni uning xalqparvarlik, demokratik, optimistic g’oyalaridir. U qancha og’ir va uqubatli turmushda yashasa ham, quvg’inga uchrasa ham, xalqning ishidan bosh tortmadi, kelajakdan umid uzmadi. Berdaq o’zining butun umrini, bor kuch – quvvatini, xalq xizmatiga bag’ishladi. Berdaqning armoni ezilgan xalqqa ozodlik, yorug’ kun berishdan iborat bo’ldi.



Xullas, odamlarning bir – biriga yaxshi munosabatda bo’lishi, donishmand bo’lishi, hunarmandchilikni rivojlantirishi, xalqning yurti uchun g’amxo’rligi xalq uchun katta yutuq bo’ldi degan Berdaq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “*O’zbek adabiyoti tarixi*” T.: Fan – 1978.
2. *Бердаҳ. Избранное. Ташкент. 1980.смр. 30.*
3. *Falsafa qomusiy lug’at, Toshkent. Sharq – 2003.*
4. *O’zbekiston milliy enstiklopediyasi, Toshkent, O’zbekiston – 2002y.*
5. <http://www.proteus2001.narod.ru/use>.

а